



O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**SAN’AT, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMİY
O’RGANISHDA FAN VA INNOVATSIYALAR UYG‘UNLIGI**

MAVZUSIDAGI ILMİY AMALIY ANJUMAN

Materiallar to‘plami

4-may

Buxoro – 2023

San'at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rghanishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

J.T. Yarashev

- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

TAQRIZCHILAR:

D.Yu. Ruziyev

- p.f.n., prof.

N.Dj. Yadgarov

- p.f.d. (DSc) prof.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

D.I. Mamurova- P.f.f.d. (PhD), dotsent Sh.I. Ibadullayeva- katta o'qituvchi

M.M. Badiyev- t.f.n., dotsent

Sh.U. Sobirova- o'qituvchi

A.R. Shukurov- dotsent

N.I. Ibatova- o'qituvchi

R.N. Raximov- v.v.b. dotsent

Sh.I. Shamsiyev- o'qituvchi

S.N. Gulov- katta o'qituvch

Z.M. Alayeva- o'qituvchi

Respublika ilmiy va ilmiy-texnikaviy amaliy anjumanning ilmiy maqola, tezislar to'plamida san'at, til, madaniyat, musiqa ta'limi hamda tasviriy san'at va ularni o'qitishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qamrab olingan. San'at, til va madaniyat sohalarida xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar, ularni o'rghanishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi hamda mamlakatimizda mazkur sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, metodik tavsiyalar borasidagi takliflarni o'z ichiga olgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'ulidirlar.

учун асосий лад манбаи сифатида хизмат қилиб келмоқда. “Чўли Ироқ” ўзбек халқининг Ироқ мақомидаги энг машҳур ва ўз ўрнида халқимиз руҳиятини ифода этадиган куйдир.

Шунингдек, Ўзбекмистон бастакорлари ўз асарларида “Чўли Ироқ” куйидан унумли фойдаланишган. Жумладан, бастакор Имомжон Икромов А.Навоийнинг “Бир пари” ғазалига боғлаб унинг ашула йўлини тузган. Ҳозирги кунда у “Дилоромимға айт” номи билан халқ орасида шухрат қозонган.

Хулоса қилиб айтганда, “Чўли Ироқ” да ўзбек халқининг ҳар қандай ҳижрон азобига чидаши, ҳар қандай қийинчилик, айрилиқ азобини енга олиши ўз ифодасини топган. Бу куй ҳар бир ўзбекнинг юрагидан жой олганлиги, миллатимиз қонига сингиб кетганлигининг сири ҳам шунда бўлса, ажаб эмас. Асрлар давомида шаклланиб, сайдалланиб мусиқа ихлосмандларининг қалбидан чуқур жой олган “Чўли Ироқ” ва шу каби асарлар миллий мусиқа меросимизнинг дурдона асарлари ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И.Ражабов “Мақомлар масаласига доир” Т.: Ўзб.Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963й.
2. У.Хамидов “Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданият тарихи” Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1996й.
3. А.Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” Т.: “Фан” нашриёти, 1993й.
4. О.Матёқубов “Мақомот” Т.: “Мусиқа”нашриёти, 2004й.

5.54.O'QUVCHILARNI MUSIQA DARSIDA ESTETIK TARBIYALASHDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGAJISH METODIK MUAMMO SIFATIDA.

Kazimov Shoxrux Raimovich

*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti
Musiqa ta'limi yo'nalishi I-bosqich magistranti.*

Nurullayev F.G.

Ilmiy rahbar- P.f.f.d (PhD) dotsent. Bux DU.

Annotation : Ushbu maqolada buxoro folklor qoshiqlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdagi orni haqida va uning metodik muammo sifatidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan. Buxoro folklor qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususisi yatiga ega bolib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. Hayotning betakror qirralari va ijod ahlining lirik kechinmalarini ozida aks e ttirgan folklor qoshiqlari oquvchilarining ongida ham nozik kechinmalarini uyğotib, ularni gozallik olamiga olib kirishi, gozallikka mehr-muhabbat uyğotib, oqishda va mehnatda faollilikka ruhlantirishi shubhasizdir.

Tayanch sozlar: folklor, metod, estetika, kuy, mahalliy uslub,xalq qo'shiqlari, madaniyat, sub-madaniyat, musiqa, qo'shiq,ohang, hissiyot, ma'naviyat, axloqiy madaniyat, san'at, adabiyot,pedagogika, xonanda

Buxoro musiqa folklori o'zining o'ynoqiligi va jo'shqinligiga ko'ra o'quvchilarini estetik tarbiyalashda muhim didaktik vosita sanalanadi. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Musiqa madaniyati” o'quv fani jarayonida Buxoro musiqa folklorini o'rganish

o‘quvchilarning san’at asarlarini his etish, ulardan ma’naviy zavq olish, go‘zallikka intilish kabi xislatlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega.⁴⁷

“**Folklor**” atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, ikki so‘zdan tashkil topgan. “Folk” (folk)–xalq va lore (lore)–donolik so‘zlarining birikmasidan iborat bo‘lib, “xalq donishmandligi” degan ma’noni bildiradi. U birinchi marta Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda ishlatilgan va shundan boshlab iste’molga kiritilgan.

Folklor–xalq ijodiyotining barcha sohalari singari xalq musiqasini ham o‘z ichiga oladi. Xalq musiqasi ayrim hollarda “Musiqqa ahli” deb ham yuritiladi. Folklor qo‘schiqlari og‘izdan–og‘izga, avloddan–avlodga o‘tib to‘ldiriladi va sayqal topadi.

Folklor qo‘schiqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning g‘oyaviyligidadir.

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi folklor qo‘schiqlaridir. Folklor qo‘schiqlarida voqeа–hodisalar shaxsning botiniy kechinmalarini o‘z aksini topadi va bu holat jamoaning his tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.⁴⁸ Shu boisdan ham folklor qo‘schiqlari o‘quvchi–yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Fanning tadrijiy taraqqiyotida estetik tarbiya muammosi o‘zining o‘rganilishi jihatidan alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Qator ilmiy tadqiqotlarda o‘quvchi va talabalarini estetik tarbiyalash muammosi batafsil o‘rganilgan. Shunday izlanishlar sirasiga S.Annamuratova, S.Fayzulina, V.Shatskaya, F.Xalilov, A.Hasanov kabi qator olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Folklor qo‘schiqlarining janr xususiyatlari mehnat qo‘schiqlari, xalq o‘yinlari va ularning taraqqiyot bosqichlari kabilar folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Pedagogikada estetik tarbiya berish muammosi XX asrning 50–60 yillaridan boshlab rivojlana boshlagan. “Estetik tarbiyalash”, “estetik tarbiya”, tushunchalari amalga oshirilgan tadqiqotlarda keng tahlil qilindi. S.Annamuratova o‘z tadqiqotida o‘quvchilarning badiiy–estetik tarbiyasi xususida fikr yuritgan bo‘lsa, F.Jo‘rayev o‘zbek xalq cholg‘u asboblarini to‘garaklarda o‘rganish jarayonida musiqiy–estetik tarbiya muammosini o‘rgangan.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, shaxsni kamol toptirish, uning his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi, ma’naviyati, madaniyatilik darajasini rivojlantrishda san’at va adabiyotning o‘z o‘rni hamda mavqeい bor. O‘quvchilarni estetik tarbiyalashda musiqaning ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qo‘sinq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati muhimligi ko‘plab dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.

Biz ushbu maqoladagi fikrlarimizni vorisiylik tamoyiliga tayangan holda amalga oshirishni nazarda tutdik. Vorislik–tarixiy taraqqiyot jarayonida yangilik bilan eskilik o‘rtasida yuzaga keladigan zaruriy aloqa, bog‘lanish usulidir.

Shunday ekan, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda ularning axloqiy sifatlariga ham e’tibor beriladi. Zero, estetik tarbiya aql bilan hissiyotni uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

“**Estetika**” keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Estetika shaxs estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Bu jarayon shaxsning yosh xususiyatlari va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqichlar hamda darajalarga ega.

Estetik tarbiya shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli pedagogik vositalar, shakllar va yo‘llar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyat va ayrim shaxsning

⁴⁷ Nurullayev F.G. Мусиқа таълимида Бўхоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. B.175-180.

⁴⁸ Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Umumiy o‘rtalim maktablari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 1995. - 246 b.

estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda. insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to‘plagan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmui tushuniladi.

O‘quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxsning go‘zallik bilan o‘zaro munosabati, uning ayrim sifatlari o‘zaro ta’sir natijasida estetik madaniyati ham doimo o‘zgarib turadi.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Estetik ong.
2. Estetik munosabatlar.
3. Estetik idrok
4. Estetik qiziqish.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim – tarbiya natijasida shakllanadi.

Estetik munosabat – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakat orqali ifodalanadi. Bunda estetik idrok birlamchi vazifani o‘taydi.

Estetik idrok - atrof muhitdagi buyum, narsa, hodisalarning estetik mohiyatini his qilish jarayoni.

Estetik qiziqish – o‘quvchida estetik faoliyatga intilish, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o‘zlashtirishga kirishishda ifodalanadi.

O‘quvchilar estetik madaniyat darajasiga o‘zlarini o‘rab turgan tevarak-atrofdagi narsa, hodisalar, kiyimlar, o‘yinchoqlar, oila a’zolarining o‘zaro samimiy munosabatlari yordamida hamda qo‘sish, musiqa tinglash orqali erishadilar. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar qo‘sish aytish, ijrochilik, musiqa asboblarini chalish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilar musiqa asboblari hamda atrof- muhitdagi kishilarga to‘g‘ri muomalada bo‘lish maqsadida, o‘zları egallagan estetik madaniyat darajasini namoyish qiladilar. Buyuk alloma Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman, ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, musiqa inson kayfiyatini o‘zgartirishdan tashqari, uning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etishini estetik jihatdan asoslab bergen. Umumiy o‘rtta ta’lim maktab o‘quvchilarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar orqali estetik tarbiyalashda Buxoro musiqa folklori muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa darslarining estetik tarbiya vositasiga aylanishida o‘qituvchining bilimi, iqtidori, go‘zal ovozi, kiyinish madaniyati, nutqi yetakchi ahamiyatga ega.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o‘quvchining ichki dunyosiga ta’sir qilib, hissiyotlarini junbushga keltiradi. Psixolog olimlarning ta’kidlashicha, musiqiy ohang inson bosh miya yarim sharlaridagi nozik nuqtalarga ta’sir etmaydigan qatlamga kirib boradi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralarini harakatga keltiradi.

O‘quvchilarda Buxoro musiqa folklori asosida shakllana boshlagan bilim, ko‘nikma va malakalar ularda milliy musiqa san’atining nodir asarlarini tushunish va o‘zlashtirish, ularidan zavqlanish imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Nurullayev F.G. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. B.175-180.

2.Nurullyaev F.G., Nurullayeva N.K. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «Modern scientific challenges and trends» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.